

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, II-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdulkarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA MUAMMOLI KREDITLARNI BARVAQT ANIQLASHNING SUN'IIY INTELLEKTGA ASOSLANGAN MENEJMENT MODELINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	14
Alovuddin Jamolov	
YASHIL TRANSPORT: BARQAROR RIVOJLANISH UCHUN IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAMARQAND VILOYATIDA MAHALLIY BUDJETLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	25
Uzakova Kamola Bexzodovna	
O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	31
Xolmurodova Moxichehra Dilmurodovna	
THE IMPACT OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT ON ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM AN ARDL BOUNDS TESTING APPROACH (2000–2024)	36
Ortikov Olloberdi Muzaffar o'g'li	
Rajabova Malika	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI	44
Rustamova Dildora Jamshid qizi	
THIS STUDY EXAMINES BEIJING'S EXPERIENCE IN PROMOTING CROSS-BORDER E-COMMERCE IN TASHKENT FROM THE PERSPECTIVE OF REGIONAL COOPERATION	50
Wang Jiahao	
DORI VOSITALARIGA OID AXBOROTLARNI BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTLARIDA AKS ETTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	58
Yodgorov Xushvakt Mansurovich	
AGROSANOAT MAJMUINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA JAMLANMA DARAJA VA KANALLARARO TAKRORLANISHNI O'LGASH METODIKASI: «YASHIL» YO'NALISHLAR MISOLIDA	63
Xudaynazarov Bekzod Akramovich	



UO'K: 336.13:338.43

AGROSANOAT MAJMUINI MOLİYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA JAMLANMA DARAJA VA KANALLARARO TAKRORLANISHNI O'LCHASH METODIKASI: «YASHIL» YO'NALISHLAR MISOLIDA

Xudaynazarov Bekzod Akramovich

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi,

 Qishloq xo'jaligidagi islohotlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash
 departamenti bo'lim boshlig'i

E-mail: B_xudaynazarov@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada vakolati bir nechta davlat organi o'rtasida taqsimlangan qo'llab-quvvatlash tizimlarida bitta obyektga — xaridor, yer maydoni yoki loyihaga — turli kanallardan tushadigan jamlanma moliyaviy qo'llab-quvvatlash darajasini va kanallararo takrorlanishni o'lchash metodikasi taklif etiladi. Tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2018–2026-yillar uchun 43 ta qo'llab-quvvatlash chorasini qamrab olgan idoraviy reyestriga tayanadi. Metodika to'rtta ko'rsatkichdan — jamlanma summa, jamlanma qo'llab-quvvatlash koeffitsiyenti, kanallararo takrorlanish indeksi va me'yordan og'ish koeffitsiyentidan — hamda to'rtta dastlabki shartdan iborat. 2025-yil ma'lumotlarida o'tkazilgan hisob-kitob kesishuv ehtimoli mavjud choralar jami kassa xarajatining 96,2 foizini tashkil etishini ko'rsatdi; takrorlanish indeksining yuqori chegarasi guruhlar bo'yicha 1,08 dan 1,71 gacha o'zgaradi va eng yuqori qiymat aynan suv tejovchi texnologiyalar — «yashil» yo'nalish — guruhiga to'g'ri keladi. Maqolada, shuningdek, davriylashtirish qoidasining amaliy ahamiyati ko'rsatilgan: tuzatish qo'llanilmaganda gektariga to'lov me'yoriy stavkadan 26,8 foizga og'adi, tuzatishdan keyin esa farq 0,5 foizga tushadi. Natijalar resurs samaradorligiga yo'naltirilgan choralarni boshqarishda obyekt darajasidagi hisobning zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: agrosanoat majmui, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, jamlanma koeffitsiyent, kanallararo takrorlanish, suv tejovchi texnologiyalar, «yashil» iqtisodiyot, byudjet samaradorligi, subsidiyalash mexanizmi.

Аннотация. В статье предлагается методика измерения совокупного уровня государственной финансовой поддержки, поступающей одному объекту — покупателю, земельному участку или проекту — по нескольким каналам, а также межканального дублирования в системах, где платёжные полномочия распределены между несколькими государственными органами. Исследование опирается на ведомственный реестр Министерства экономики и финансов Республики Узбекистан, охватывающий 43 меры поддержки за 2018–2026 годы. Методика включает четыре показателя — совокупную сумму, коэффициент совокупной поддержки, индекс межканального дублирования и коэффициент отклонения от нормы — и четыре предварительных условия. Расчёт по данным 2025 года показал, что на меры с вероятностью пересечения приходится 96,2 процента совокупных кассовых расходов; верхняя граница индекса дублирования по группам изменяется от 1,08 до 1,71, причём наибольшее значение приходится на группу водосберегающих технологий — «зелёное» направление. Показано практическое значение правила периодизации: без корректировки выплата на гектар отклоняется от нормативной ставки на 26,8 процента, после корректировки — на 0,5 процента. Результаты обосновывают необходимость учёта на уровне объекта при управлении мерами, направленными на ресурсоэффективность.

Ключевые слова: агропромышленный комплекс, финансовая поддержка, совокупный коэффициент, межканальное дублирование, водосберегающие технологии, «зелёная» экономика, бюджетная эффективность, механизм субсидирования.

Abstract. This paper proposes a methodology for measuring the aggregate level of state financial support received by a single object — a buyer, a land parcel, or a project — through several channels, and for quantifying



cross-channel duplication in systems where payment authority is distributed among several public bodies. The study draws on the departmental register of the Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan, covering 43 support measures for 2018–2026. The methodology comprises four indicators — aggregate amount, aggregate support coefficient, cross-channel duplication index, and norm deviation coefficient — and four prerequisites. Calculations based on 2025 data show that measures with overlap potential account for 96.2 per cent of total cash expenditure; the upper bound of the duplication index ranges from 1.08 to 1.71 across groups, with the highest value observed for water-saving technologies — the «green» direction. The paper also demonstrates the practical significance of the periodisation rule: without adjustment, the per-hectare payment deviates from the statutory rate by 26.8 per cent, while after adjustment the deviation falls to 0.5 per cent. The findings substantiate the need for object-level accounting in managing resource-efficiency measures.

Keywords: agro-industrial complex, financial support, aggregate coefficient, cross-channel duplication, water-saving technologies, green economy, budget efficiency, subsidy mechanism.

KIRISH

«Yashil» iqtisodiyotga o'tish agrar sohada, eng avvalo, resurs samaradorligini oshiruvchi texnologiyalarni joriy etish orqali amalga oshiriladi. O'zbekistonda ushbu yo'nalish bir nechta moliyaviy kanal orqali qo'llab-quvvatlanmoqda: suv tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy etish xarajatlarining bir qismi qoplanadi, shu maqsadda jalb etilgan kreditlarning foiz to'lovlari subsidiyalanadi hamda ayrim hududlarda qo'shimcha choralar qo'llaniladi. Mazkur moliyaviy oqimlar turli vakolatli organlar orqali yo'naltirilib, tegishli me'yoriy hujjatlar asosida tartibga solinadi.

Amaldagi amaliyotda har bir vakolatli organ o'z chorasi doirasidagi to'lovlarni muntazam monitoring qilib boradi. Ushbu tizimni yanada rivojlantirish doirasida bitta obyektga barcha kanallar bo'yicha ajratilgan jamlanma qo'llab-quvvatlash darajasini yaxlit baholash imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv bitta subyektga yo'naltirilgan davlat resurslarining umumiy hajmini tizimli baholash, shuningdek, turli moliyaviy kanallar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va takrorlanish darajasini yanada aniq o'lchash imkonini beradi.

Maqolaning maqsadi vakolati taqsimlangan tizimlar uchun jamlanma qo'llab-quvvatlash darajasini va kanallararo takrorlanishni o'lchash metodikasini ishlab chiqish hamda uni amaldagi ma'lumotlarda sinovdan o'tkazishdan iborat. Shundan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilangan: o'lchov birligini benefitsiar darajasigacha tushirishning xalqaro amaliyotdagi holatini o'rganish; ko'rsatkichlar tizimi va ularni hisoblashning dastlabki shartlarini asoslash; metodikani O'zbekiston ma'lumotlarida, «yashil» yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratgan holda qo'llash. Mazkur matnni tahrirlash jarayonida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan ham foydalanildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qo'llab-quvvatlashni o'lchash bo'yicha xalqaro amaliyotda to'rtta asosiy tizim shakllangan: Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining ishlab chiqaruvchini qo'llab-quvvatlashni baholash uslubiyoti (OECD, 2016), Jahon bankining yordamning nominal darajasi ko'rsatkichi (Anderson, 2009), Xalqaro valyuta jamg'armasining byudjet klassifikatsiyasiga asoslangan tizimi (IMF, 2014) hamda Jahon savdo tashkilotining Qishloq xo'jaligi bo'yicha bitimi (WTO, 1994).

Ushbu tizimlarda tahlil birligi, asosan, mamlakat, tarmoq yoki mahsulot darajasida belgilangan. Benefitsiar darajasidagi hisob esa alohida infratuzilma orqali ta'minlanadi. Xususan, Yevropa Ittifoqida xo'jaliklar kesimida ma'lumot yig'uvchi tizim har bir benefitsiar olgan subsidiyalarni jamlanma ko'rsatkich sifatida qayd etadi (European Commission, 2026a, 2026b). Takrorlanish nazorati esa yer uchastkalarini identifikatsiyalash tizimi orqali ma'muriy tartibda amalga oshiriladi (European Court of Auditors, 2020; Tools4CAP, 2024).

O'zbekistonlik olimlarning tadqiqotlarida agrar sohani moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalalari keng qamrovda o'rganilgan. Xususan, investitsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlari (G'ozibekov, 2003; Vaxabov va boshq., 2009) hamda moliyaviy qo'llab-quvvatlashning alohida turlari (Xakimov, 2023) bo'yicha muhim ilmiy natijalarga erishilgan. Mazkur tadqiqotlarda shakllantirilgan ilmiy yondashuvlar asosida bitta oluvchiga turli kanallar orqali yo'naltiriladigan jamlanma qo'llab-quvvatlash darajasi va ushbu kanallarning o'zaro kesishuvini miqdoriy baholash yo'nalishini yanada rivojlantirish imkoniyati mavjud.

Mavjud xalqaro tizimlar to'lov vakolati yagona organda jamlangan sharoit uchun mo'ljallangan bo'lib (European Commission, 2026c), ularda kanallar kesishuvi nisbiy ko'rsatkich sifatida emas, balki binar moslik sharti sifatida tekshiriladi. Mazkur matnni tahrirlash jarayonida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan ham foydalanildi. Shu sababli, vakolat bir nechta organ o'rtasida taqsimlangan tizimlar uchun mo'ljallangan o'lchov konstruksiyasini ishlab chiqish ushbu tadqiqotning asosiy vazifasi qilib belgilangan.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ma'lumot manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining Qishloq xo'jaligi sohalari moliyasi boshqarmasi tomonidan yuritiladigan idoraviy reyestrda foydalanildi. Unda 2018–2026-yillarda Davlat byudjeti hisobidan ajratilgan 43 ta qo'llab-quvvatlash chorasi vakolatli organlar, normativ-huquqiy asoslar, amal qilish muddatlari hamda yillar kesimidagi reja va kassa xarajatlari ko'rsatkichlari bilan aks ettirilgan. Reyestr ishonchligi yillik hisobotlar bilan solishtirib tekshirildi va aniqlangan 11 foizlik tafovut noaniqlik doirasi sifatida barcha nisbiy ko'rsatkichlarda inobatga olindi.

O'lchov birligi sifatida obyekt (oluvchi, yer uchastkasi yoki loyiha) belgilangan. Reyestrda kuzatuv birligi chora bo'lgani sababli hisob-kitoblar tasviriy xarakterga ega. Metodika to'rtta dastlabki shartga tayanadi: nettolashtirish (tranzit transfertlarning ikki marta hisobga olinishining oldini olish), davriylashtirish (majburiyat va to'lov davrlarini ajratish), obyekt identifikatsiyasi hamda identifikatorlarni normallashtirish. Mazkur shartlar muayyan xatolik turlarini bartaraf etishga xizmat qiladi.

Birinchi ko'rsatkich — obyektga tushgan jamlanma qo'llab-quvvatlash summasi:

$$S(j) = \sum S(j,k), \quad k = 1...4 \quad (1)$$

bunda $S(j,k)$ - j obyektga k kanal bo'yicha amalga oshirilgan to'lov.

Ikkinchi ko'rsatkich — jamlanma qo'llab-quvvatlash koeffitsiyenti:

$$JQK(j) = S(j) / B(j) \times 100 \% \quad (2)$$

bunda $B(j)$ — choraning funksional turiga mos baza (investitsion-kompensatsion choralar uchun xarid qiymati, rag'batlantiruvchi choralar uchun mahsulot qiymati, kompensatsion choralar uchun tegishli xarajat hajmi).

Uchinchi ko'rsatkich — kanallararo takrorlanish indeksi:

$$TI(j) = S(j) / \max S(j,k) \quad (3)$$

Indeks 1 dan 4 gacha qiymat qabul qiladi: 1 ga teng bo'lganda obyekt bitta kanal bo'yicha qo'llab-quvvatlanganini, 1 dan yuqori bo'lganda esa bir nechta kanal ishtirok etganini ko'rsatadi. Uning afzalligi kanallarning nafaqat sonini, balki moliyaviy vaznini ham inobatga olishidadir.

To'rtinchi ko'rsatkich me'yordan og'ishni o'lchaydi:

$$\Delta(j) = (JQK(j) - s) / s \times 100 \%,$$

bunda s — me'yoriy hujjatda belgilangan asosiy stavka. Mazkur matnni tahrirlash jarayonida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan ham foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2025-yilda reyestr bo'yicha kassa xarajati 4 063,8 mlrd so'mni tashkil etgan. Choralar oluvchilar doirasi bo'yicha guruhlanganda uchta kesishuv guruhi ajratildi (1-jadval).

Kesishuv guruhlari bo'yicha takrorlanish indeksining yuqori chegarasi ^{1-jadval} (2025-yil)¹


Kesishuv guruhi	Asosiy kanal, mlrd so'm	Kesishuvchi kanallar, mlrd so'm	TI yuqori chegarasi	Ulushi, %
Suv tejovchi texnologiyalar	414,0	293,1	1,71	17,4
Texnika xaridorlari	742,0	183,9	1,25	22,8
Paxta yetishtiruvchilar	2 109,0	167,9	1,08	56,0
Kesishuv guruhlarida jami	-	-	-	96,2

¹ Manba: Idoraviy reyestr ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.



Jadval ma'lumotlaridan ikkita muhim xulosa kelib chiqadi. Birinchidan, kesishish ehtimoli mavjud choralar jami kassa xarajatining 96,2 foizini tashkil etadi, bu esa masalaning tizimli xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Mazkur ko'rsatkich takrorlanishning amaldagi hajmini emas, balki me'yoriy hujjatlardagi oluvchilar doirasiga asoslangan yuqori chegarasini va kesishuv imkoniyatlarini ifodalaydi.

Ikkinchidan, guruhning moliyaviy hajmi bilan takrorlanish indeksi o'rtasida teskari bog'liqlik kuzatiladi. Eng yirik guruh — paxta yetishtiruvchilar eng past indeksga, nisbatan kichik guruh — suv tejovchi texnologiyalar esa eng yuqori indeksga ega. Mazkur natija «yashil» yo'nalishlarni boshqarish nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi: resurs samaradorligini oshiruvchi choralarda kanallar yanada zichroq kesishadi, chunki bitta obyektga bir vaqtning o'zida xarajat subsidiyasi, kredit foizini qoplash va hududiy qo'shimcha choralar yo'naltirilishi mumkin (1-rasm).



1-rasm. Kesishuv guruhlari bo'yicha asosiy va qo'shimcha kanallar hajmi (2025-yil, mlrd so'm)²

1-rasmda aks ettirilganidek, mutlaq ko'rsatkichlar bo'yicha eng katta qo'shimcha oqim suv tejovchi texnologiyalar guruhiga to'g'ri kelib, 293,1 mlrd so'mni tashkil etadi; bu esa asosiy kanal hajmining deyarli 70 foiziga tengdir. Ushbu guruhda uchta chora o'zaro kesishadi: paxta maydonlarida tomchilatib sug'orishni joriy etish uchun gektariga belgilangan miqdordagi subsidiya, donli ekinlar bo'yicha sug'orish tizimlariga ajratiladigan subsidiya hamda tegishli hududlarda suv tejash maqsadlariga jalb etilgan kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarini qoplash.

Davriylashtirish shartining amaliy ahamiyati aynan «yashil» yo'nalish misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Reyestrda 2025-yil bo'yicha suv tejovchi texnologiyalar yo'nalishida 414,0 mlrd so'm kassa xarajati qayd etilgan; yillik hisobotda esa platforma orqali 40,8 ming gektarda texnologiyalar joriy etilgani ko'rsatilgan. Ushbu ikkita raqamning bevosita nisbati gektariga 10,148 mln so'mni tashkil etadi, holbuki me'yoriy stavka gektariga 8 mln so'm qilib belgilangan — bunda og'ish 26,8 foizni tashkil etadi. Biroq kassa xarajati tarkibida o'tgan yilda ijobiy xulosa olgan talabgorlarga tegishli 89,4 mlrd so'm ham mavjud. Mazkur summa chiqarib tashlangach, ko'rsatkich gektariga 7,957 mln so'mni tashkil etib, me'yoriy stavkadan og'ish 0,5 foizgacha pasayadi.

Ushbu hisob-kitob metodik jihatdan ikkita muhim xulosaga ega. Birinchidan, davriylashtirish sharti qo'llanilmagan taqdirda, o'lchov 26,8 foizlik xatolikni keltirib chiqaradi — ya'ni amalda mavjud bo'lmagan takrorlanish sun'iy ravishda namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, to'g'ri tuzatish kiritilganda hisoblangan qiymat me'yoriy stavkaga maksimal darajada yaqinlashadi, bu esa metodikaning ishonchligini tasdiqlaydi. Shunday qilib, taklif etilayotgan metodika haqiqiy takrorlanishni hisob-kitob xatoliklari sababli yuzaga keladigan soxta takrorlanishdan aniq ajratish imkonini beradi.

Jamlanma koeffitsiyentni agregat ma'lumotlardan bevosita keltirib chiqarish imkoni mavjud emas, chunki kanallarning hisob bazalari turlichadir: xarajat subsidiyasi joriy etish qiymatiga, foiz subsidiyasi esa kredit summasi, stavkasi va muddatiga bog'liq. Shu sababli, jamlanma daraja parametrik model orqali baholanadi. Asosiy qarz teng ulushlarda so'ndirilgan taqdirda, foiz xarajatlarini qoplashning xarid narxiga nisbati quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$cov / P = (r - i) \cdot \alpha \cdot (T + 1) / 2 \quad (4)$$

2 Manba: Idoraviy reyestr ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



bunda r — shartnoma stavkasi, i — belgilangan chegara, α — narxning kredit hisobidan moliyalashtirilgan ulushi, T — muddat. Real parametrlar oralig'ida (moliyalashtirilgan ulush 0,70–0,85, muddat 3–7 yil, stavka 14–24 foiz) foiz qoplashning narxga nisbati 5,6 foizdan 47,6 foizgacha o'zgaradi. Demak, ikki kanal bo'yicha qo'llab-quvvatlangan obyekt uchun jamlanma koeffitsiyent faqat bir kanal bo'yicha qo'llab-quvvatlangan obyektlikidan bir necha baravar yuqori bo'lishi mumkin va ushbu farq amaldagi hisob tizimida aks ettirilmaydi (2-jadval).

2-jadval
Metodikaning axborot talablari va ularning amaldagi holati³

Talab qilinadigan ma'lumot	Amaldagi holat	Zarur o'zgartirish
Oluvchi identifikatori	Reyestrda alohida ustun sifatida yuritilmaydi	To'lov hujjatidagi rekvizitdan olinib, alohida ustun sifatida kiritilsin
Yer uchastkasi kadastr raqami	Faqat ayrim yo'nalishlarda mavjud	Maydonga bog'langan barcha choralar uchun majburiy etib belgilansin
Kanal kodi	Mavjud emas	Chora turiga bog'langan qoida bo'yicha avtomatik belgilansin
Baza qiymati	Qisman mavjud (xarid qiymati ayrim hollarda)	Chora turiga mos baza birlamchi hujjatda qayd etilsin
Majburiyat paydo bo'lgan davr	Faqat to'lov sanasi qayd etiladi	Xulosa berilgan sana alohida maydon sifatida saqlansin

2-jadvaldan ko'rinadiki, metodikani joriy etishdagi asosiy to'siq hisoblash murakkabligi emas, balki ma'lumotlarning obyekt kesimida to'liq qayd etilmasligidir. Talab qilinadigan beshta maydonning to'rttasi birlamchi hujjatlarda mavjud bo'lib, ularni alohida ustun sifatida ajratish kifoya qiladi; faqat kanal kodi yangi element hisoblanadi, u ham chora turiga bog'langan qoida bo'yicha avtomatik belgilanishi mumkin.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Vakolati bir nechta organ o'rtasida taqsimlangan qo'llab-quvvatlash tizimlari uchun jamlanma daraja va kanallararo takrorlanishni o'lchash metodikasi ishlab chiqildi. Metodika to'rtta ko'rsatkich va to'rtta dastlabki shartdan iborat bo'lib, mavjud xalqaro o'lchov tizimlaridan ikkita asosiy belgisi bilan farqlanadi: jamlanma summa choraning turiga mos baza qiymatiga nisbatlanadi hamda kanallar kesishuvi alohida miqdoriy ko'rsatkich bilan ifodalanadi.

2025-yil ma'lumotlari bo'yicha kesishuv ehtimoli mavjud choralar jami kassa xarajatining 96,2 foizini tashkil etishi aniqlandi. Takrorlanish indeksining yuqori chegarasi guruhlar bo'yicha 1,08 dan 1,71 gacha o'zgaradi; eng yuqori qiymat esa suv tejovchi texnologiyalar guruhiga to'g'ri keladi. Ushbu natija «yashil» yo'nalishlarni boshqarishda obyekt darajasidagi hisobning zarurligini ko'rsatadi, chunki resurs samaradorligini oshiruvchi choralarda kanallar eng zich kesishadi.

Davriylashtirish shartining amaliy ahamiyati empirik tarzda tasdiqlandi: tuzatish kiritilmaganda gektariga to'lov me'yoriy stavkadan 26,8 foizga og'adi, tuzatishdan keyin esa bu farq 0,5 foizgacha tushadi. Bu esa metodikaning haqiqiy takrorlanishni hisob-kitobdagi soxta takrorlanishdan aniq ajrata olishini isbotlaydi.

Amaliy tavsiyalar:

Idoraviy reyestrni takomillashtirish: Reyestrda oluvchi identifikatori va kanal kodi maydonlari kiritilsin — bu qo'shimcha ma'lumot to'plashni talab qilmaydi.

Kadastr hisobini majburiy qilish: Maydonga bog'langan barcha choralarda yer uchastkasining kadastr raqami majburiy etib belgilansin; bu «yashil» yo'nalishdagi kesishuvlarni aniq aniqlash imkonini beradi.

Nazorat bosqichini o'zgartirish: Takrorlanish nazorati to'lovdan keyingi bosqichdan arizalarni ko'rib chiqish bosqichiga ko'chirilsin.

Keyingi tadqiqot yo'nalishlari: Obyekt darajasidagi ma'lumotlar shakllantirilgandan so'ng, jamlanma koeffitsiyentning tarmoqlar kesimidagi taqsimotini statistik jihatdan tekshirish, takrorlanishning haqiqiy hajmini hisoblash hamda «yashil» yo'nalishdagi choralarning resurs samaradorligiga ta'sirini baholash imkoni yaratiladi.

3 Manba: Muallif ishlanmasi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Anderson, K. (Ed.). (2009). Distortions to agricultural incentives: A global perspective, 1955–2007. Palgrave Macmillan; World Bank.
2. European Commission. (2026a). Farm Sustainability Data Network (FSDN). https://agriculture.ec.europa.eu/data-and-analysis/farm-structures-and-economics/fsdn_en
3. European Commission. (2026b). Beneficiaries of CAP funds. https://agriculture.ec.europa.eu/common-agricultural-policy/financing-cap/beneficiaries_en
4. European Commission. (2026c). CAP paying agencies. https://agriculture.ec.europa.eu/common-agricultural-policy/financing-cap/cap-paying-agencies_en
5. European Court of Auditors. (2020). New technologies for monitoring the Common Agricultural Policy (Special Report No. 04/2020). Publications Office of the European Union.
6. FAO, UNDP, & UNEP. (2021). A multi-billion-dollar opportunity: Repurposing agricultural support to transform food systems. FAO.
7. G'ozibekov, D. G'. (2003). Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. Moliya.
8. International Monetary Fund. (2014). Government finance statistics manual 2014. IMF.
9. OECD. (2016). OECD's producer support estimate and related indicators of agricultural support: Concepts, calculations, interpretation and use (The PSE Manual). OECD Publishing.
10. OECD. (2025). Agricultural policy monitoring and evaluation 2025. OECD Publishing.
11. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2026). Davlat byudjeti hisobidan ajratilgan subsidiyalar to'g'risida ma'lumot, 2018–2026-yillar [Chop etilmagan idoraviy reyestr].
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 31-iyuldagi "Qishloq xo'jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4410-son qarori: <https://lex.uz/ru/docs/-4457272>
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 23-fevraldagi "Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada jadal tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 95-son qarori: <https://lex.uz/docs/-5304846>
14. Robinson, M. (Ed.). (2007). Performance budgeting: Linking funding and results. Palgrave Macmillan.
15. Saaty, T. L. (1980). The analytic hierarchy process: Planning, priority setting, resource allocation. McGraw-Hill.
16. Schick, A. (2003). The performing state: Reflection on an idea whose time has come but whose implementation has not. OECD Journal on Budgeting, 3(2), 71–103.
17. Tools4CAP. (2024). Integration of farm level data towards CAP monitoring and evaluation (Deliverable D4.1). <https://www.tools4cap.eu>
18. Vaxabov, A. V., Jumayev, N. X., & Hoshimov, E. A. (2009). Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: sabablari, xususiyatlari va iqtisodiyotga ta'sirini yumshatish yo'llari. Akademnashr.
19. World Trade Organization. (1994). Agreement on Agriculture. WTO.
20. Xakimov, Z. I. (2023). Aholi tomorqalaridan foydalanishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish [Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi, Toshkent moliya instituti].



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
